



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:  
dav\_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana:10-07-2023 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 109269**

**Obyekt nomi** «Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Ohangrabo ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan profilaktoriy binosini yuridik hujjatga ega bo'lgan qismini pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binosi sifatida ixtisoslashtirib rekonstruktsiya qilish.»

**Buyurtmachi** - "Hamkor-Best-Story Invest" MChJ.

**Bosh loyihachi** - "Big Star Project" MChJ.

**Litsenziya** O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 20.09.2021-yildagi AL-001906-son.

**Moliyalashtirish manbai** - O'z mablag'lari hisobidan.

**Bosh pudratchi** - Tanlov asosida aniqlanadi.

**Qurilish turi** Yangi qurilish.

**Murojaat raqami:** № 90002

**1. Loyihalash uchun asos**

Toshkent shahar qurilish Bosh boshqarmasi, Yashnobod tumani Qurilish bo'limi tomonidan 2021-yil 15-yanvarida berilgan 226105529-son ruxsatnoma.

Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 29-martda berilgan 1726-1726290-39382-son va 2023-yil 16-martda berilgan 1726-1726290-63135-son arxitektura-rejalashtirish topshirig'lari.

Loyihaning eskiz varianti Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining 2023 yil 29 apreldagi 57675-sonli xulosasi.

2023-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va bosh loyihachi bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.

Davlat kadastrlari palatasining Toshkent shahar boshqarmasining 04.08.2022-yildagi 1726290/R-A2955535-son ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi Davlat reestridan ko'chirma.

"Trade Geo Servis" MChJ tomonidan 2022-yilda tuzilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi texnik hisobot.

"Hududiy Elektr Tarmoqlari" AJ tomonidan 2023-yil 7-fevralida berilgan 01/1760-son texnik shart.

"Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2022-yil 22-oktyabrda berilgan 270/4-3009-son texnik shart.

Yon qo'shnilar tomonidan berilgan roziliknomalar.

Buyurtmachi va bosh loyihachi o'rtasida 07.03.2023-yilda tuzilgan 25/14-11-son shartnoma.

Buyurtmachining 23.05.2023-yildagi 7-son xati.

## **2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra "ishchi loyiha" bo'yicha loyiha-smeta xujjatlari.

Umumiy tushuntirish xati.

Bosh reja.

Arxitektura va rejalashtirish yechimlari.

Temir-beton konstruktsiyalari.

Bino konstruktsiyalari mustahkamligi hisob-kitobi.

Isitish va shamollatish yechimlari.

Suv va oqava suv tizimi.

Elektr ta'minoti va yoritish tizimi.

Aloqa va xabar berish tizimi.

Yong'indan xabar berish yechimi.

Binoning issiqlik tejamlorligi bo'yicha hisob-kitobi va energetik pasporti.

Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.

Ko'rgazmali materiallardan nusxa.

Atrof-muhit ta'siridan himoyalash loyihasi.

## **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

Qurilish va iqlim zonasi - II.

Me'yoriy qor yuki - 0.50 kPa.

Me'yoriy shamol yuki 0.38 kPa.

Yer osti suvlari yer yuzasidan 20,0 metr chuqurlikda yotadi.

Yer osti sharoitlari turi - II.

Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 8 ball.

### **Bosh reja va arxitektura-rejalashtirish yechimlari.**

Loyihalashtirilayotgan turar-joy binolari Yashnobod tumani, Ohangrabo ko'chasi, 1-uy manzilida profilaktoriy hududida joylashgan. Bosh reja bo'yicha hududga 5 ta 8 qavatli (mansard qavati bilan) turar-joy binolari (Blok-A, Blok-B, Blok-V, Blok-G va Blok-D) joylashtirilgan. Turar-joy binolari orasidagi maydonda yer osti avtoturargohi loyihalashtirilgan. Bino atrofidagi bo'sh maydonlar obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi, avtomobillar uchun turargoh, bolalar maydonchalari, dam olish maydonchalari loyihalashtirilgan, kechki yoritish uskunalari o'rnatiladi, ariqlar o'rnatiladi va yo'llar asfalt va bruschatka plitkalar bilan qoplanadi.

**Blok-A** turar-joy binosi 8-qavatli (mansard qavati bilan), yerto'lali, B-blokka birlashtirib burchakka loyihalashtirilgan, o'lchamlari 22,9x22,8 metr o'qlari 1-6/A-E. 1-7 qavatlar balandligi 3,30 metr, mansard qavati 2,7 metr va yerto'la balandligi 3,90 metr (poldan-shiftgacha).

### **Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.**

Binoning umumiy qurilish maydoni	- 456,7 m <sup>2</sup> .
Binoning umumiy ichki maydoni	- 2406.4 m <sup>2</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Binoning umumiy hajmi	- 13701,0 m <sup>3</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Xonadonlar umumiy soni	- 48 ta xonadon. Bunda:
1 xonali	- 16 ta xonadon.
2 xonali	- 32 ta xonadon.

**Blok-B** turar-joy binosi 8-qavatli (mansard qavati bilan), yerto'lali, A vaV-bloklar orasiga joylashtirib loyihalashtirilgan, reja bo'yicha to'g'ri turtburchak shaklda,

o'lchamlari 15,7x15,1 metr o'qlari 7-12/P\*-Y\*. 1-7 qavatlar balandligi 3,30 metr, mansard qavati 2,7 metr va yerto'la balandligi 3,90 metr (poldan-shiftgacha).

### **Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.**

Binoning umumiy qurilish maydoni	- 257,2m <sup>2</sup> .
Binoning umumiy ichki maydoni	- 1548.8m <sup>2</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Binoning umumiy hajmi	- 7716,0m <sup>3</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Xonadonlar umumiy soni	- 24 ta xonadon. Bunda:
1 xonali	- 8 ta xonadon.
2 xonali	- 32 ta xonadon.

**Blok-V** turar-joy binosi 8-qavatli (mansard qavati bilan), yerto'lali, B -blokka birlashtirib orasiga loyihalashtirilgan, reja bo'yicha to'g'ri turtburchak shaklda, o'lchamlari 31,8x15,1 metr o'qlari 13-23/P\*-Ya\*. 1-7 qavatlar balandligi 3,30 metr, mansard qavati 2,7 metr va yerto'la balandligi 3,90 metr (poldan-shiftgacha)

### **Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.**

Binoning umumiy qurilish maydoni	- 514,4m <sup>2</sup> .
Binoning umumiy ichki maydoni	- 3120.8m <sup>2</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Binoning umumiy hajmi	- 15432,0m <sup>3</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Xonadonlar umumiy soni	- 64 ta xonadon. Bunda:
1 xonali	- 48 ta xonadon.
2 xonali	- 16 ta xonadon.

**Blok-G** turar-joy binosi 8-qavatli (mansard qavati bilan), yerto'lali, B-blokka birlashtirib burchakka loyihalashtirilgan, o'lchamlari 22,9x22,8 metr o'qlari 1-6/A-E. 1-7 qavatlar balandligi 3,30 metr, mansard qavati 2,7 metr va yerto'la balandligi 3,90 metr (poldan-shiftgacha)

### **Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.**

Binoning umumiy qurilish maydoni	- 456,7m <sup>2</sup> .
Binoning umumiy ichki maydoni	- 2635.8m <sup>2</sup> . ( yerto'la qavati bilan)

Binoning umumiy hajmi	- 13701,0m <sup>3</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Xonadonlar umumiy soni	- 44 ta xonadon. Bunda:
1 xonali	- 23 ta xonadon.
2 xonali	- 21 ta xonadon.

**Blok-D** turar-joy binosi 8-qavatli (mansard qavati bilan), yerto'lali, G-blokka birlashtirib loyihalashtirilgan, reja bo'yicha to'g'ri turtburchak shaklda, o'lchamlari 15,7x15,1 metr o'qlari 1-6/A-E. 1-7 qavatlar balandligi 3,30 metr, mansard qavati 2,7 metr va yerto'la balandligi 3,90 metr (poldan-shiftgacha)

#### **Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.**

Binoning umumiy qurilish maydoni	- 257,2m <sup>2</sup> .
Binoning umumiy ichki maydoni	- 1646.4m <sup>2</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Binoning umumiy hajmi	- 7716,0m <sup>3</sup> . ( yerto'la qavati bilan)
Xonadonlar umumiy soni	- 28 ta xonadon. Bunda:
1 xonali	- 21 ta xonadon.
2 xonali	- 7 ta xonadon.

Binolarning 1-8 qavatlarida 1va 2 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'lada A, B va V bloklarda avtomobillar uchun turargoh, G va D bloklarda magazinlar va texnik xonalar loyihalashtirilgan. Binoning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, moyli bo'yog', keramik plitka, laminat va keramogranit ishlatiladi. Binoning tashqi bezagida fasad bo'yog'i, travertin usulida suvoq va panjaralar ishlatiladi. Binoning yuqori qavatlariga ko'tarilish 1ta zina va 1ta lift orqali amalga oshiriladi.

Binoning arxitektura yechimi: gips tyaga, derazalar va panjaralar ishlatilib zamonaviy turar-joy ko'rinishida hal qilingan.

#### **Turar-joy binolarining konstruktiv yechimi.**

Turar-joy binolari tarkibiy sxemasi devorlari 300 mm qalinlikda gazoblok bilan to'ldirilgan quyma temir-beton karkas konstruktsiyasida bajarilgan.

Poydevor osti qalinligi 900 mm bo'lgan quyma temir-beton plitadan iborat. Poydevorlar alohida ustunlar ostiga quyilgan quyma temir-betondan.

Ichki devorlar ostidagi poydevorlar tasma shaklda quyilgan quyma temir-betondan. Yerto'la devorlari 400 mm qalinlikda quyma temir-betondan. Tashqi devorlar qalinligi 300 mm bo'lgan gazoblok g'ishtdan va qalinligi 70 mm bo'lgan bazalt plita bilan qoplanadi. Ichki devorlar 250 va 120 mm qalinlikda gazoblokdan.

Ustunlar 400x400 mm, 500x500 mm va to'sinlar 400x500 mm hamda 400x600mm. bo'lgan quyma temir-betondan.

Mustahkamlik diagframmalari quyma temir-betondan.

Uzaklar quyma temir-betondan.

Qavatlar qoplamasi 200 mm qalinlikdagi quyma temir-betondan va zavod sharoitida tayyorlangan temir-beton plitalardan ishlatilgan.

Zinalar quyma temir-betondan.

Lift shaxtalari 200 mm qalinlikda quyma temir-betondan.

Tom qismi yog'och konstruktsiyalar ustidan metall profnastil tunuka bilan qoplanadi va quyosh

energiyasidan foydalanish uchun quyosh panellari o'rnatiladi.

Barcha quyma temir-beton konstruksiyalar suvni o'tkazmaydigan portlandtsement qo'shilgan beton qorishmasidan quyiladi.

Bino atrofi kengligi 1,5 metr bo'lgan asfalt-beton bilan qoplanadi.

### **Yong`in xavfsizligi.**

Bino konstruksiyasi yong`in xavfsizligi bo'yicha -II darajali yong`indan evakuatsiya qilish uchun binoga yetarlicha chiqish yo'llari mo'ljallangan. Evakuatsiya yo'llari yonginga chidamli yoki yonmaydigan materiallar bilan qoplangan. Yong`in vaqtida ventilyatsiya o'chiruv avtomatik tizimi va uskuna bilan jihozlangan, yong`in o'chirishga mo'ljallangan ichki suv quvuri va yongindan xabar beruvchi tizimlar loyihalashtirilgan.

### **Energiya samaradorlik.**

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejoychi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- 300 mm qalinlikdagi gazoblok devor ustidan zichligi  $\gamma=120\div 125$  kg/m<sup>3</sup>, qalinligi 70 mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- 1-qavat poli termoizolyatsiyasi zichligi  $\gamma=24$  kg/m<sup>3</sup> ga teng qalinligi 50 mm bo'lgan ekstradirovanniy penopolistiroil bilan bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- derazalar 2 kamerali plastik materiallardan tayyorlangan.
- tom qoplamasi zichligi  $\gamma=140\div 160$  kg/m<sup>3</sup>, qalinligi 100 mm va 50 mm bo'lgan penopolistiroil plitalardan qoplama termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning uchinchi darajasi);
- tomda (A, B, V- bloklarda) 46-dona quyosh panellari joylashtirilgan.
- tomda (G va D) - 24 dona quyosh panellari joylashtirilgan.
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan.
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan.
- Teplotexnik hisob bo'yicha binoga kirish qismiga o'rnatilgan temir eshik qalinligi 30 mm bo'lgan bazalt negizida mineral plitalar bilan qoplanadi.

### **Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.**

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa harajatlarisiz 12% QQS bilan umumiy hisoblanganda - 75 507 831, 577 ming so'mni tashkil qiladi.

### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Muhandislik tarmoqlari loyihalash topshirig`i, hamda texnik shartlariga asosan turar-joy binolari quyidagi tizimlar bilan ta'minlanadi: isitish, shamollatish, elektr ta'minoti yechimlari, suv va oqava suv ta'minoti va yong`inni habarlash, yong`inni avtomatik tarzda o`chirish tizimlari, quyosh batareyalaridan foydalanish tizimlari.

Elektr ta'minoti 18.10.2022-yildagi 01/1466-son texnik shartga asosan "Power Build Construction" MChJ tomonidan loyihalashtirilayotgan RPda 35 kVli ikki yacheyka o'rnatilib loyiha asosida kabel elektr tarmog'i qurilib obyekt hududida quvvatiga mos transformator o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

Isitish tizimi EKW 6 AsZN rusumli elektr toki bilan ishlaydigan isitish qozoni orqali amalga oshiriladi.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

## **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Loyihaning eskiz varianti Toshkent shahar qurilish Bosh boshqarmasining 2023-yil 29-apreldagi 57675-sonli xulosasi xamda bosh reja va binoning fasad ko'rinishi 2023-yil 17-martdagi 03-16-sonli bayonnomasi bilan kelishilgan.

Loyiha hujjatlarida o'zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi "Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining" Xulosasi qayta olinib, loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda qayta ekspertiza olinsin.

Loyiha hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

## **6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza tomonidan, taqdim etilgan turar-joy binolari ishchi loyihasining arxitektura, konstruktiv, ichki muhandislik tarmoqlari va uskunalari yechimlari, yong'inni habarlash va yong'inni o'chirish tizimlari, quyosh energiyasidan foydalanish tizimlari va xarajatlar hisob-kitobi ko'rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga qo'shimchalar kiritilib kamchiliklar bartaraf qilindi.

Bosh rejada xo'jalik chiqindilarini to'plash uchun maxsus maydoncha tashkil etildi, binoga kirish qismida aravachada yuradigan nogironlar uchun pandus qilindi, binoning asosiy ko'taruvchi konstruksiyalarini mustahkamligini aniqlash bo'yicha konstruktiv hisobi ekspertizaga topshirildi. Bloklarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari qayta hisoblab chiqildi.

Lift shaxtalari, ichki devorlar va tom konstruksiyalari chizmalari ishlab chiqildi.

Binoning kesim, diafragma chizmalarida o'qlar, birinchi va boshqa qavatlar rejasida ularning joylashgan joyi va o'lchamlari aniqlandi. Poydevorlarda ishlatiladigan armatura, karkas va setkalar hajmi va soni aniqlandi, poydevor, ustun va to'sinlar uchun ishlatiladigan betonlarning, devorlarga ishlatiladigan pishiq g'ishtlarning markasi, karkaslardagi armaturalar diametri va soni chizmalarda ko'rsatildi.

Binoning tom konstruksiyasida tarnovlar o'rnatiladigan joylar, qor ushlagich va tomga chiqish joyi chizmalari ishlab chiqildi.

Loyihaning ichki muhandislik tarmoqlari va uskunalari tizimlarida (Isitish va shamollatish, suv va oqava suv, elektr ta'minoti va yoritish tizimi, aloqa va xabar berish, videokuzatuv va yong'indan xabar berish va yong'inni avtomatik tarzda o'chirish tizimlari yechimlari) da aniqlangan xato va kamchiliklar bartaraf etildi.

Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ining II-qismi 16-23 bandlarida ko'rsatilgan talablarini bajarish uchun shahar mutasaddi tashkilotlarining texnik shartlariga asosan binolarning tashqi muhandislik tarmog'i ishlab chiqilsin va o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo'yicha smeta harajatlari qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan umumiy hisoblanganda

-3 793 072,734 ming so'mga kamaytirildi.

Ishchi loyihaning dastlabki smeta harajatlar hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi mashina va mexanizmlarning narxlari, qurilish materiallari narxlari va transport harajatlarini aniqlashtirilishi orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 9-dekabrda PQ-4545-son qarorining bandlari bajarilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil, 26-dekabrda «Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 1050-son hamda 1998 yil 15-maydagi, 210-son qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalariga amal qilinsin.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga rioya etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyulda "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq rioya qilishsin va energiya tejankor materiallardan foydalanilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yilda PF-220-son farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrda 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martda 255-son qarori talablariqa rioya etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-mayda 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martda 256-son va 2022-yil 20-aprelda 200-son qarorlari talablariga qat'iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-mayda 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining

joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

## **7. Xulosalar.**

**"Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Ohangrabo ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan profilaktoriy binosini yuridik hujjatga ega bo'lgan qismini pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binosi sifatida ixtisoslashtirib rekonstruktsiya qilish"** ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruvi natijalarini hisobga olgan holda kelgusida qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun - 71 714 758,843 ming so'mni, QQS bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlari. Bunda:

- qurilish materiallari va mahsulotlari, konstruksiyalar hamda uskunalari uchun sarflanadigan xarajatlari - 38 043 715,639 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda - 14 207 031,287 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlari - 632 964,809 ming so'mni;
- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlari - 1 810 060,205 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%) - 9 133 017,017 ming so'mni;
- obyektning sug'urtalash xarajatlari (0,32%) - 204 245,725 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (12%) - 7 683 724,162 ming so'mni tashkil etadi.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'jektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

**Bosh mutaxassis:** Mardonov Shoxrux Isroil o'g'li